

Mening bordir o'z diyorim

Normurod Narzullayev



O'qing va eslab qoling.



O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat.



O'qing.

O'zbekiston – ona yurtim,
Saodatim, yuragim.
Mening bordir o'z diyorim,
Hech yot* diyor darkor emas*.

Bulbullarning xonishidan*
Tonglar otsin, kulsin quyosh,
Mening bordir o'z gulzorim,
O'zga gulzor darkor emas.



yot – begona
darkor emas – kerak emas
xonish – kuylash





1. She'r nima haqida yozilgan?
2. Ona yurt deganda nimani tushunasiz?
3. Vatan haqida yana qanday she'rlarni bilasiz?



Diyor so'ziga ma'nodosh so'zlarni toping.



Berilgan satrlardagi so'zlarni qanday tushundingiz?



O'zbekiston – ona yurtim,
Saodatim, yuragim.

Mening bordir o'z diyorim,
Hech yot diyor darkor emas.



She'rni yod oling.

